



INFORMATSIYA VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING OG'ZAKI  
NUTQ KURSLARIDA ISHLATILISHI

*Ismailov Anvar Rustamovich,  
SamDCHTI, f.f.n., dotsent  
Fayzullayeva Munavvar Bahodirovna,  
SamDCHTI magistranti*

*Kalit so'zlar: axborot va kommunikatsiya texnologiyasi (AKT), Ingliz tili xorijiy til sifatida, Ingliz tili ikkinchi til sifatida, taqlidiy nutq, intensiv nutq, idrok nutqi, interaktiv nutq, ekstensiv nutq, CD-ROM va DVD, ineraktiv doska, proyektor.*

Bugungi kunda Ingliz tili dunyo tili deb tan olingan bir paytda o'quvchilarni turli interaktiv metodlar va albatta AK texnologiyalari yordamida qiziqtirib, ularga dars davomida chet tilini mukammal ravishda o'rgatish va yetarli ko'nikmalar hosil qilishda Ingliz tili o'qituvchilaridan ham pedagogi k mahorat va albatta AKT vositalaridan bemalol foydalana olishlari talab etilmoqda. Zero, XXI asr bu Informatsiya va Kommunikatsiya davri hisoblanadi. Bugungi yoshlar AK texnologiyalaridan barcha sohalarda va kundalik yumushlarida bemalol va mukammal darajada foydalanmoqdalar. Frydrochov, Klimova va Poulova P. larning ta'kidlashlaricha: „AKT bu hozigi davrda yoshlar uchun nafas olishdek muhim sanaladigan vositaga aylanib qoldi“ [4,18]. Shu sababli til o'rgatuvchi o'qituvchilar bularni hisobga olgan holda texnologiyalar vositasida o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish va havaslarini uyg'otish va rivojlantirishlari muhim sanaldi.

„Motivatsiya har bir narsaning va albatta, o'qish va o'rganishning kalitidir“ [2,34]. Shu sababli nafaqat chet tilini o'rgatishda balki boshqa fanlarga bo'lgan qiziqishlarni oshirishda barcha ta'lim muassasalarida AKT vositalaridan foydalanish va ular asosida interaktiv o'yinlar va darslar tashkil etish doimo samara beradi va kutilgan natijalarga olib keladi.

Bugungi til o'rganuvchi talabalar chet tilida ravon, mukammal va bexato so'zlashishni va xohlagan tilida bemalol fikrini bayon etishni xohlashadi. Ko'pchilik talabalar chet tilini o'rganishda eng qiziqarli

va bir vaqtning o'zida qiyin hisoblanadigan o'gzaki nutqni rivojlanish mahoratiga ko'proq va jiddiyroq yondashmoqdalar. Zero, chet tilini mukkamal bilish ushbu tilda bemalol gapira olishi, fikrini bayon eta olishi bilan belgilanadi.

“Ingliz tilida juda yaxshi gapirar ekan” yoki “Ingliz tilini bilmas ekan” degan fikrlarni tez-tez eshitib turamiz. Shuni esimizdan chiqarmasligimiz lozimki, Ingliz tilida bemalol, ravon va aniq so'zlashishni o'rganish oson jarayon emas. Til o'rganuvchi o'quvchilar o'rganayotgan xorijiy tilida, masalan ingliz tilida yaxshi yozishi mumkin, yozma nutqda bemalol fikrini bayon etishi va ushbu tilda barcha turdagi matnlarni, paragraflarni qiynalmasdan ifodali o'qish mahoratlari ega bo'lishlari mumkin, va chet eldan tashrif buyurgan mehmonlarning nutqini aniq va ravon tinglab tushunishlari ham mumkin, lekin ko'pchilik talabalarda amaliyot yetishmovchiligidan, yoki o'ziga ishonmasligidan, hatto gapirishdan cho'chib, chet tilida amalga oshirilayotgan og'zaki nutq kurslarida bemalol turib o'z fikrlarini bayon eta olishmaydi. Ba'zan biz shunday til o'rganayotgan o'quvchilar bilan uchrashamizki biz ular bilan so'zlashayotganimizda xuddiki badiiy asar, kitob o'qiyotganday bo'lamiz. Chunki ular so'zlashayotganda kitobiy, kitobdan matn o'qib berayotgandek va yoki xuddi kitobni mexanik ravishda yodlab olgandek gapirishadi. Chet tillarni o'rganuvchi ko'pchilik talabalar o'rganayotgan tillarida ravon gapirishni va chet elliklar bilan so'zlashishni, muloqot qilishni yoqtirishadi.



Ammo ba'zi birlarining nutqlarida grammatik va leksik xatolar uchrab turadi. Bu albatta ajablanarli holat emas, chunki Ingliz tili xorijiy til, bizning ona tilimiz emas. Ingliz tilida ravon gapirishni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan to'siq va kamchiliklarni kamaytirish maqsadida, bir qancha sinxron, ya'ni kognitiv, jismoniy, sotsial-madaniy jarayonlarni darslar mobaynida AKT vositalari yordamida jalb qilishni taqozo etadi.

Ingliz olimi Bygatening fikricha, "og'zaki nutq barcha odamlar tomonidan birlari bilan aloqa qilish maqsadida foydalanadigan mahorat turi bo'lib, shuning uchun so'zlashish eng muhim jarayondir, o'quvchilarning bu mahorati sinf darslarida bemalol, ravon so'zlashish imkoniga ega bo'lishlari uchun kerak" [1,4]. Bu albatta ko'pchilikka ma'lumki, til o'rganuvchi o'quvchilar o'zlarining tenqurlari va chet eldan kelgan mehmonlar bilan bemalol aloqa o'rnatishni xohlashadi. Ma'lumotlar almashishda insonlar verbal, ya'ni til orqali va noverbal, ya'ni imo-ishoralar, tana harakatlari yordamida fikrlarini ifodalashadi. Shu sababdan, fikr va g'oyalarni bemalol ifodalashda eng samarali va maqbul yo'l bu tildan foydalanishdir.

Mashhur ingliz olimi Brown ta'kidlashicha, so'zlovchilar maqsadiga ko'ra umuman nutqning beshta turi mavjuddir. Ular: taqlidiy nutq, intensiv nutq, idrok nutqi, interaktiv nutq va ekstensiv nutq [2,18]. Quyida biz nutqning besh turi va AKT vositalarining bu besh turidagi muhim bo'lgan jihatlari haqida to'xtalmoqchimiz.

**Taqlidiy nutq.** Bu nutq ko'rinishida so'zlovchi nutqidagi so'zlar va iboralarning bir necha bor taqlid qilib qaytarilishini ko'rishimiz mumkin. Bu qaytarish turi o'z ichiga quyidagi til xususiyatlarini oladi, ya'ni grammatik, leksik va katta e'tibor so'z talaffuziga beriladi. Agar biz bu so'zlashuv turida AK texnologiyalarining qanchalik muhimligi haqida to'xtalmoqchi bo'lsak, avvalambor, zamonaviy texnologiyalarning bu nutq turida ulkan ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tish joiz deb bildik. Bugungi kunda AKT vositalari Ingliz tili darslarida bemalol o'qituvchilar bajarayotgan

vazifalarini ortig'i bilan bajaryapti, ya'ni yangi so'zlar yodlashda va so'zlarning talaffuzini o'rganishda, qo'shiq va she'rlar eshitib yodlashda "qaytarish va eshittirish vositalari" vazifalarini o'tab kelmoqda. Bunday usuldan foydalanish ham o'qituvchi va til o'rganuvchi o'quvchilarga ham foydali va qiziqarli jarayon ekanligi amalda isobotlangan.

**Intensiv nutq**da so'zlovchi tilning semantik xususiyatlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi talab etiladi, ya'ni qisqa cho'zish, intonatsiya, ya'ni nutq ohangi, urg'u va ritm haqida bilishi lozim. Bu turdagi nutq quyidagi baholash vazifalarini, ya'ni gap va dialog to'ldirish, baland ovozda ifodali o'qish mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda kompyuter vositalari, ya'ni proyektor, interaktiv elektron doskalar ushbu nutq turini rivojlantirish uchun muhim bo'lgan AKT uskunalaridir. Dialog, monolog va matnlardagi gaplarni to'ldirish uchun an'anaviy doskadan emas, balki inaktiv elektron doskalardan foydalanish til o'rganuvchi o'quvchilarning ham qiziqishlarini orttiradi, hamda til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini ham uyg'otadi. Chunki bugungi yoshlar zamon talabi bo'lgan metodlar va zamonaviy uskunalar bilan o'qitilsagina, ertangi rivojlanayotgan dunyoning barcha sohalarida o'z o'rinlarini topishlari mumkin bo'ladi.

**Idrok nutqi** deb atalgan bu turdagi nutq jarayoni o'z ichiga dialog va suhbat kabi qisqa va lo'nda munosabat jarayonlarini olib, oddiy savollar va kichik vazifalar ham bu turdagi nutq tarkibiga kiruvchi elementlar hisoblanadi. Masalan:

A: Kechirasiz, soatingiz bormi?

B: O'ndan o'n beshta o'tdi.

Bunda A so'zlovchining savoliga B so'zlovchi birdan vaqtni aytib, A so'zlovchiga yana bir "soat nechki bo'ldi?" degan savolni so'rashga o'rin qoldirmadi, ya'ni B so'zlovchi A so'zlovchining nima demoqchi ekanligini idrok qilib birdan vaqtni aytdi. Shu sababli bu nutq turi idrok nutqi deb ataladi va bunda kompyuter vositalari til o'rganuvchilarning bu turdagi nutq jarayonini rivojlantirish uchun muhim sanaladi. Ya'ni dars jarayonlarida dialoglar va suhbatlar video roliklar shaklida



proyektorda, yoki kompyuterlarda ko'rsatilsa kutilgan natijaga erishish mumkin. Inglizlarda shunday gap bor "seeing is half learning", ya'ni ko'rish orqali o'rganayotgan narsaning ko'p qismini o'zlashtirish mumkin. Chunki ko'pchilik o'quvchilar ko'rish orqali ma'lumotlarni tez va oson qabul qila oladilar. Shu sababli AK texnologiyalari eng foydali vositalar hisoblanadi.

**Interaktiv nutq** idrok nutqidan farqli jihati shundaki, bu nutq turida matnlar, dialog va monologlarning murakkab va keng ekanligidir. Bu nutqda tilning ikki shakli mavjud, ya'ni, "transactional" va "interpersonal" tillar. Birinchi turdagi til formasining asosiy maqsadi faqatgina maxsus axborotlarni almashtirish hisoblanadi va shu xususiyati bilan rasmiy uslubga yaqin sanaladi. Ikkinchi turi esa har xil jargonlar, ellipsislar ko'p bo'lib, og'zaki so'zlashuv uslubiga xosdir. Intervyular, rol o'ynash va muhokama mashqlari ikkinchi turga mansubdir. AKT vositalarining ushbu turdagi ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu uskunalar orqali mavzuga oid biror-bir video rolik ko'rsatilib, undan so'ng muhokama mashg'ulotlari olib borsa bo'ladi yoki ushbu videoda ko'rsatilgan qahramonlarning rollarini bo'lib olib o'ynash mumkin.

Oxirgi nutq turi bu – **ekstensiv** deb nomlanib, u barcha turdagi nutq jarayonlarini, og'zaki namoyishlarni va hatto, hikoya va ertak aytishni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu nutq samarali va ta'sirchan bo'lishida AKT uskunalar asosiy vositachi hisoblanadi. Agarda og'zaki namoyish yoki loyiha

namoyishida kompyuter vositalaridan foydalanilsa bu ham so'zlovchiga qulaylik tug'diradi va tomoshabin yoki eshituvchilarga qiziqarli bo'lishi tabiiy.

Eng asosiy AKT vositalari sifatida va hamda og'zaki nutqni rivojlantirish uchun foydali sanaladigan zamonaviy uskunalar sifatida CD-ROM va DVD, proyektor, interaktiv doska kabilarni keltirishimiz mumkin. Mashhur olimlar Dundey va Hockly ta'riflashicha, "CD-ROMdan foydalanish darslarda talabalar ishtirokiga ijobiy ta'sir etadi, chunki ular haqiqiy til o'rganuvchilarga kerakli materiallar mavjud va ular ta'sirida talabalar mustaqil ravishda til ko'nikmalarini shakllantirishlari mumkin" [3,115]. DVD disklaridan foydalanish til o'rganuvchilarga qo'l keladi, chunki ko'rayotgan video yoki filmlarining pastgi qismida subtitri keltirilishi mumkin va til o'rganuvchi talabalar subtitr yordamida oson va bimalol film mazmunini anglab yetishishlari mumkin bo'ladi.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, nutq jarayonini rivojlantirish uchun AKT vositalarining o'rni beqiyos.

Ma'lumki, til o'rganishdagi asosiy to'rt mahoratlardan so'zlashish va yozish ko'nikmalari "prodaktiv" va "aktiv" jarayonlar hisoblaniladi, bunda ma'lumotlar ishlab chiqiladi, lekin eshitish va o'qish esa, "reseptiv" jarayondir, ya'ni faqatgina bularda ma'lumotlar qabul qilinadi. Shunday bo'lsada, til o'rganishdan asosiy maqsad to'rtta ko'nikmalarning birdek rivojlantirishdir.

#### Adabiyotlar:

1. Bygate, M. "Speaking". Oxford, Oxford University Press. 1987. –P 125.
2. Brown. H. D. "Language Assessment Principles and Classroom Practices". Pearson Education: Longman. 2004. –P 324 - 400.
3. Dudley Gavin & Hockly Nicky. "How to Teach English with Technology". England Pearson Educational Limited. 2007. –P 194-200.
4. Frydrochov Klimova, B., Poulouva, P. "ICT as a motivational tool in the learning of foreign languages". From national commitment and initiatives to implementation in the classroom. 2014. – P 156.

*Ismailov A., Fayzullayeva M. The Use of ICT in Oral Production Courses. The article is devoted to the significance of fluent and competent speaking skill and the role and importance of ICTs for improving oral speech in English, and about ICTs are as main motivational tools in learning and teaching English.*



*Исмаилов А., Файзуллаева М. Использование информационных и коммуникационных технологий в устных курсах. В этой статье подчеркивается важность свободного владения иностранным языком, в особенности английским, а также роль и важность информационных и коммуникационных технологий как мотивационного инструмента для изучающих язык.*